



QURILISH ISHLARI

2020- yil yanvar-iyul oylarida

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida jami 1184,1 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 95,2 % ni tashkil qildi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 8,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 27,7 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 1059,8 mlrd. so‘mni yoki jami qurilish ishlarining 89,5 % ni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 100,7 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 115,5 mlrd. so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 71,3 % ni tashkil qildi.



Ma’lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu-o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining assosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 68,0 % ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 23,1 % ni tashkil eti.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 8,9 % to'g'ri keldi.



Qurilish ishlaringin faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

(jamiga nisbatan, % da)

2019- yil yanvar-iyul

8,9



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

23,1



Fuqarolik
obyektlarini qurish

68,0



Binolar va
inshootlarni qurish

8,9



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

23,1



Fuqarolik
obyektlarini qurish

68,0



Binolar va
inshootlarni qurish



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topadi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi


(mlrd. so 'm)

| | Jami qurilish ishlari | shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo'yicha | | |
|--------------------------|--------------------------|---|---------------------------------------|--------------------|
| | | yirik qurilish tashkilotlari | kichik korxona va mikrofirmalar | norasmiy sektor |
| Sirdaryo viloyati | 1184,1 | 8,8 | 1059,8 | 115,5 |
| <i>shaharlar</i> | | | | |
| Guliston | 461,2 | 8,1 | 431,8 | 21,3 |
| Shirin | 54,9 | - | 53,3 | 1,6 |
| Yangiyer | 104,5 | - | 99,6 | 4,9 |
| <i>tumanlar</i> | | | | |
| Boyovut | 90,1 | 0,4 | 78,9 | 10,8 |
| Guliston | 57,7 | - | 46,1 | 11,6 |
| Mirzaobod | 84,7 | - | 79,1 | 5,6 |
| Oqoltin | 82,3 | - | 76,6 | 5,7 |
| Sardoba | 24,2 | - | 16,5 | 7,7 |
| Sayxunobod | 46,9 | 0,1 | 40,4 | 6,4 |
| Sirdaryo | 107,7 | 0,1 | 75,6 | 32,0 |
| Xovos | 69,9 | 0,1 | 61,9 | 7,9 |



Hududlarda qurilish ishlarining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o'sish sur'ati 114,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Guliston tumanida 99,1% hamda Xovos tumanida 99,6 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Sardoba tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,7 % ni tashkil qildi.




Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo‘yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1059,8 mld. so‘m yoki jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 89,5 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 100,7 % ni tashkil qildi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 8,8 mld. so‘m yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 0,7 % ni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 27,7 % ni tashkil qildi.


Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 115,5 mld. so‘m yoki jami qurilish ishlarining 9,8 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 71,3 % ni tashkil qildi.






Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



Nodavlat mulkchilik shakli



Davlat mulkchilik shakli

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 47,5 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,0 % ni tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 % punktga kamaydi.




Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 1136,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 96,0 % ni (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 % punktga ko‘payish) tashkil qildi.

2020- yil
yanvar-iyul



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 38,9 % ga to‘g‘ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 9,2 %, Yangiyer shahriga 8,8 %, Boyovut tumaniga 7,6 % va Mirzaobod tumanida 7,2 % dan to‘g‘ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo‘limi.

Aloqa telefonи: (67) 225-02-37
 (67) 236-86-27

